



PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI –TA'LIM SIFATINING GAROVI

Maqsuda Norbosheva,
Termiz davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrasini mudiri

Yangiboyeva Gavhar,
Jarqo'rg'on biznes va yengil-sanoat texnikumi
O'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Tarbiyachi-pedagog yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachi-pedagogning siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi.

Kalit so'z: maktabgacha, ta'lim, tarbiya, jarayon, shaxs, bola.

Demak, tarbiyachi-pedagog-pedagog avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachi-pedagogning hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi[1].

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi[5].

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish. Maxsus kompetentlik–kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi[6]:



–psixologik kompetentlik–pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish[15];

–metodik kompetentlik– pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash; informasion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish[7];

–kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

–innovation kompetentlik–pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish[14];

–kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish[8].

–Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

–Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

–Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik[9].

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'zo'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega[16]. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi[10].

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish; ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Pedagogning mutaxassis sifatida[13]:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;-pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;-ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;



-faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;
- kasbiy va malakalarini takomillashtirish;
- ko'nikma salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralari izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.
Pedagoglarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir[11].

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir.
Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tarbiyachi-pedagog-maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassisligi bo'yicha yetuk bilimli va yuksak fazilatli shaxs sanaladi. Shuning uchun zamonaviy tarbiyachi-pedagog-murabbiy qiyofasida ko'plab fazilatlarini namoyon eta olishi kerak[12]. Zamonaviy murabbiy o'zini mutaxassisligi bo'yicha chuqur puxta bilimga ega bo'lish, o'z ustida tinimsiz ishlashi kerak. U pedagogika va psixologiya, fiziologiya fanlarining asoslarini bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Farberman B. Ilgor pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan», 2000 y.
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: - T.: «Tarbiyachi», 2004 y.
3. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do'stona muhit yaratish omili. -T.: YUNISEF, 2005 y.
4. Tolipov U.Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma). – T.:«Fan» nashriyoti, 2006 y.
5. Abdukarimovich, Y. T. (2023, January). SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR THE FAMILY. In Conference Zone (pp. 147-149).
6. Yo'ldoshev Tojiddin Abdukarimovich. (2023). OILADA BOLALARNI TO'G'RI TARBIYALASHNING ASOSIY SHARTLARI VA MUAMMOLARI. SCHOLAR, 1(1), 139–143.
7. Abdukarimovich, Y. T., Isokovich, U. F., & Melikmurodovich, S. U. B. (2023). FORMATION OF A RELATIONSHIP OF RESPONSIBILITY TO THE FAMILY IN YOUNG PEOPLE.
8. Abdukarimovich, Y. T. (2022). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MA 'NAVYI-AXLOQIY XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH. Uzbek Scholar Journal, 11, 114-116.
9. Abdukarimovich, Y. T., Nurmatovich, K. A., & Kakhramonovna, S. S. (2022). Crisis of the Age of Maturity, The Formation of The Image of "I". Global Scientific Review, 9, 21-25.
10. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. Global Scientific Review, 9, 1-4.
11. Isakovich, U. F., & Abdukarimovich, Y. T. (2022). THE PECULIARITIES OF THE FORMATION OF SPIRITUAL EDUCATION IN CHILDREN IN THE FAMILY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 1-4.
12. Yuldashev, T. (2022, February). Measures to eliminate or prevent the manifestation of personality aggression. In Conference Zone (pp. 227-229).
13. Abdukarimovich, Y. T., & Melikboboyevich, S. U. (2022). FORMING A RESPONSIBLE ATTITUDE TO THE FAMILY IN YOUNG PEOPLE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 653-657.
14. Abdukarimovich, Y. T. (2021). Pedagogical direction cooperation between family and educational organization.
15. Yo'ldoshev, T. (2021). KELAJAK AVLODNI TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 2(NUU Conference 1), 333-336.
16. Йулдошев, Т. А. (2018). ЦЕННОСТНЫЕ ОРИЕНТАЦИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 85.